



UDK:316,3

Suhrob TOSHEV,
Toshkent kimyo-texnologiyalari instituti tayanch doktoranti
E-mail: suhrobtoshev98@gmail.com

TKTI instituti professori, f.f.d S.Atamuratov taqrizi asosida

G'OYAVIY-MAFKURAVIY TAHDIDLARGA QARSHI YOSHLARDA IMMUNITETNI HOSIL QILISHDA TA'LIM-TARBIYA VA QADRIYATLARNING O'RNI

Annotatsiya

Ushbu maqolada yoshlarni g'oyaviy-mafkuraviy tahdidlardan himoyalash yo'lida ularning tafakkurida ta'lim-tarbiya va qadriyatlar orqali immunitet hosil qilish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Axloq, ma'naviyat, ta'lim-tarbiya, qadriyatlar, immunitet, g'oyaviy-mafkuraviy tahdidlar, yoshlar, xavfsizlik, global dunyo, virtual olam, himoyalash, milliy g'oya, millat, internet, axborot xavfsizligi.

THE ROLE OF EDUCATION AND VALUES IN BUILDING IMMUNITY IN YOUNG PEOPLE AGAINST IDEOLOGICAL THREATS

Annotation

This article discusses the creation of immunity in the minds of young people through education and values in order to protect them from ideological threats.

Key words: ethics, spirituality, education, values, immunity, ideological threats, youth, security, global world, virtual world, protection, national idea, nation, internet, information security.

РОЛЬ ОБРАЗОВАНИЯ И ЦЕННОСТЕЙ В ФОРМИРОВАНИИ ИММУНИТЕТА У МОЛОДЕЖИ К ИДЕОЛОГИЧЕСКИМ УГРОЗАМ

Аннотация

В данной статье рассматривается вопрос создания иммунитета в сознании молодежи посредством образования и ценностей с целью защиты их от идеологических угроз.

Ключевые слова: Этика, духовность, образование, ценности, иммунитет, идеологические угрозы, молодежь, безопасность, глобальный мир, виртуальный мир, защита, национальная идея, нация, интернет, информационная безопасность.

Yoshlarni g'oyaviy-mafkuraviy tahdidlardan himoyalashda ularni mafkuraviy immunitetni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Mafkuraviy immunitetni shakllantirishda ma'naviy-axloqiy ta'lim-tarbiyani rivojlantirish, milliy o'zlikni anglash va qadriyatlarga hurmat tuyg'usining yoshlar ongiga singdirish nihoyatda muhim vositalardan sanaladi. "...qaysi xalq, qaysi millat yosh avlod tarbiyasi ustida uzoqni ko'zlab tinimsiz ish olib borsa, shu yurtning farzandlari elning chinakam g'ururi va iftixoriga aylanadi"[1].

Jadidchilarimizdan, Abdulla Avloniy o'zining Turkiy guliston yoxud axloq asarida ta'lim va tarbiya haqida fikr bildirib "dars oluvchi biluvchi, tarbiya oluvchi amal qiluvchisi demakdur"[2] deydi. Darhaqiqat, ta'lim va tarbiya alohida emas, birga holatda ishlaganda jamiyat rivoji uchun xizmat qiladi. Tarbiya va ta'lim biri boshqasidan ajralmas jarayon hisoblanadi. Ta'lim jarayonida beriladigan tarbiya, ta'lim tizimi orqali yoshlarga fazilat, xislat, odob-axloqni singdirishdir. Farobiy "Fozillar shahri" asarida "ta'lim degan so'z xalqlar va shaharliklar o'rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o'rtasida tug'ma fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish degan so'zdir. Ta'lim so'z va o'rgatish bilangina bo'ladi. Tarbiya esa, amaliy ish va tajriba bilan o'rganishdir, yani shu xalq, shu millatning amaliy malakalaridan iborat bo'lgan ish-harakatga, kasb-hunarga berilgan bo'lishidir"[3] degan fikrlarni keltirgan. "Janobi haq insonlarni asl hilqatda iste'dod va qobiliyatli, yaxshi ila yomonni, foyda ila zararni, oq ila qorani ayiradurgan qilib yaratmishdur. Lekin,

bu insondagi qobiliyatini kamolga yetkurmak tarbiya ila bo'ladi"[4].

Ma'naviy-axloqiy ta'lim-tarbiyaning asosiy vazifasi yoshlarimizni ma'naviy jihatdan yuksalishga chorlaydigin, milliy axloqiy tamoyillarni singdirishga xizmat qiladigan, yoshlarda bugungi davr ruhiga mos fikrlarni rag'batlantirishga yo'naltirilgan va milliy g'oya, milliy mafkurani ularning hayotiy tamoyil darajasiga olib chiqishdan iborat. Ta'lim-tarbiya yuksak tafakkur natijasida yuzaga keladi, shu bilan birga ongni shakllantiruvchi asosiy vosita ham ta'lim va tarbiya hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya insonlarda o'qish, yozish, turli soha va fanlar bo'yicha dastlabki bilim va ko'nikmalar hosil qilish, shaxsiy manfaat va umumjamiyat manfaatlarini o'zaro bog'liq holatda qabul qilish, vatanparvarlik va insoniylik g'oyalarini tarbiyalash, qadriyatlarga hurmatni shakllantirish, davlat va jamiyat uchun kerakli kadrlarni tayyorlash, jamiyatni intellektual salohiyatini oshirish kabi vazifalarni bajaradi. Ta'lim mohiyatan tabiat va jamiyatga aloqador fikr, g'oya yoki ta'limotni insonlarga o'rgatish vositasidir. o'sha fikr, g'oya yoki ta'limot mafkuraning ta'sirida yuzaga keladi. Demak, ta'lim jamiyat ongini shakllantirishda mafkuraning o'rnini birlamchi ekanini anglatadi.

Yurtimizda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash, yoshlar ma'naviyatini turli g'oyaviy-mafkuraviy tahdidlardan asrash bugungi davrning eng muhim masalalaridan biri. G'oyaviy-mafkuraviy tahdidlardan himoyalash uchun:

1. Yoshlarning g'oyaviy-mafkuraviy immunitetini oshirish

2. Ta'lim tizimida milliy mafkura, vatanparvarlik targ'ibot dasturlarini kuchaytirish.

3. Axborot xavfsizligini mustahkamlash

4. Yoshlarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirish zarur.

Ma'naviyatga qarshi qaratilgan mafkuraviy har qanday tahdid o'z-o'zidan mamlakat xavfsizligini, uning milliy manfaatlarini, yosh avlod kelajagini ta'minlash yo'lidagi jiddiy xatarga aylanishi va oxir-oqibatda jamiyatni jiddiy inqirozga olib kelishi tayin. Hozirgi kunda dunyoning ayrim hududlaridagi g'oyaviy-mafkuraviy tahdidlar natijasida nihoyatda ulkan ma'naviy yo'qotishlar yuz berayotgani, millatlarning asriy madaniyati va qadriyatlari, milliy tafakkuri, turmush tarzi dan chiqayotgani, axloq, odob, jamiyat va oila hayoti, erkin yashash tarzini jiddiy xavf ostida qolayotganligini ko'rishimiz mumkin. Bunday xurujlarning pirovard oqibati yoshlarni tug'ilib o'sgan yurti va xalqidan begonalashishga, vatanparvarlik tuyg'ularidan mahrum etishga va hayotga loqayd qaraydigan shaxsga aylantirishga qaratilganligi nihoyatda achinarli. Shuning uchun ham, Sharq yoki G'arb mamlakatlarini, Afrika yoki Osiyo qit'asi bo'ladimi, jahonning qaysi joyida bo'lmasin, ma'naviyatga qarshi tahdid paydo bo'lsa, o'zining bugungi kuni va ertangi istiqbolini o'ylaydigan har bir ongli inson va jamiyat tashvishga tushishi tabiiy.

Bunday mafkuraviy xurujlar milliy va diniy tomirlarimizga bolta urishini, bizni ajdodlarimizdan davrlar davomida saqlanib e'zoz topib kelgan qadriyatlarimizdan butunlay uzib tashlashdek yovuz maqsadlarni ko'zlashini yurtimizda yashaydigan sog'lom fikrli inson tushunadi. Bunday tajavvuzkorona tahdidlar bizlar uchun mutlaqo begona mafkura va dunyoqarashni yoshlarimiz qalbi va ongiga singdirishga qaratilayotgani bilan nihoyatda xatarlidir.

Bu borada O'zbekiston Respublikasining birichi Prezidenti I. Karimov quyidagilarni keltiradi: "Agarki biz bunday xatarlarga qarshi o'z vaqtida qat'iyat va izchillik bilan kurash olib bormasak, zararli oqimlar bizning yurtimizga ham shiddat bilan yopirilib kirishi, yoshlarimizni o'z girdobiga tortib ketishi oqibatida ularning ota-ona, oila, el-yurt oldidagi burchi va mas'uliyatini o'ylamaydigan, faqat bir kunlik hayot bilan yashaydigan xudpisand kimsalarga aylanib qolishi mumkinligini tasavvur qilish qiyin emas. Mana shu achchiq haqiqatni yurtimizdagi har bir inson, har qaysi ota-ona, eng muhimi, har qaysi yigit-qiz chuqur anglab olishi lozim"[5].

Globallashuvning kengayib borishi sharoitida davlatchiligimiz O'zbekiston mavjudligining eng muhim masalalaridan biri bu o'zbek jamiyatining intellektual, ma'naviy, axloqiy va estetik holatidir. Bugun insoniyat geostrategik makonda geosiyosiy qarama-qarshiliklar, milliy, mintaqaviy va xalqaro nizolarni hal qilishda harbiy va axborot urushlaridan foydalanish ko'lamini ma'lum darajada cheklash omillariga e'tibor qaratish lozim. Ma'naviy qadriyatlar tizimining barbod qilinishi davlatda shaxs, guruh va ommaviy onga vayronkor ta'sir ko'rsatish uchun qulay sharoit yaratadi. Bunday tahdidlar yangilanayotgan o'zbek jamiyatining ma'naviy sohasidagi qayta tiklab bo'lmas oqibatlarga, yani millatning ma'naviy yaxlitligini yo'q qilish va natijada mamlakatimizning suveren davlat sifatida yo'q bo'lishiga olib keladi. Bular davlatimiz fuqarolarining ongida vayronkor ta'sirning oldini olish, xavf va tahdid ko'lamini aniqlash, ularga qarshi kurashishda o'zbek jamiyatning vatanparvarlik, axloqiy va madaniy salohiyatini yuksaltirish uchun samarali tizimni yaratish zaruriyatini namoyon qiladi. o'zbek jamiyatning ma'naviy sohasi, milliy xavfsizligini ta'minlash muammolarini yanada chuqur, har tomonlama o'rganish va jahon hamjamiyati rivojida yuksalish shartlari bilan bogliq holda kuchaytirishni talab qiladi.

"Mening qat'iy ishonchimga ko'ra, jamiyatda ta'limning nufuzini oshirish va yoshlarning kamolotga

intilishini rag'batlantirish – bu barqaror va izchil taraqqiyotga erishish kafolatidir. Bularning barchasi, hech shubhasiz, unib-o'sib kelayotgan yosh avlodni zo'ravonlik va radikalizmning salbiy ta'siridan himoya qilishda yordam beradi"[6]. Darhaqiqat, ta'limning to'g'ri tashkil etilganligi, undagi o'qituvchi kadrlarning o'z kasbiga bo'lgan muhabbati, ta'limning milliy qadriyatlar va an'analar bilan boyitilganligi, ko'pchilik Sharq xalqlariga xos bo'lgan ta'lim va tarbiyaning o'zaro bog'liqligi yoshlarning komil inson bo'lib o'z o'rnini topishida yo'l ko'rsatuvchi chiroq bo'lib xizmat qilishi aniq. Ammo, ta'lim tizimi to'g'ri tashkil etilmagan, jahon andozasini mental xususiyatlarni inobatga olmagan holatda joriy etilgan, o'qituvchilarni o'z ishidan manfaatdorligi bo'lmagan jamiyatda, "Ommaviy madaniyat"ning unsurlarini yoshlar turli vositalar orqali qabul qilayotgan va ularda analiz-sintez qilish bo'yicha tahdidbardoshligi bo'lmagan jamiyatda tahdidlar o'z ta'sirini nihoyatda kuchli ko'rsatadi. Bu jarayon kamida bir avlodni yo'qotilishiga, ko'pi bilan esa davlat mustaqilligi, suverenitetini yo'qotishga olib kelishi muqarrar.

"Bunday keskin va tahlilali sharoitda biz, ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla ko'y bu masalada hushyorlik va ogohlikni yanada oshirishimiz kerak. Bolalarimizni birovlarining qo'lga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim"[7].

"Eng murakkab savollardan biri shuki, bizdagi barqarorlik va xavfsizlik yo'lida tahdid bo'lib turgan muammolarni anglab yetaymizmi? Xavfsizligimizga tahdid bo'lib turgan muammolarga nimani qarshi qo'ya olamiz? Jamiyatimiz to'xtovsiz va barqaror rivojlanishiga biz istiqomat qilayotgan mintaqada jug'rofiy, siyosiy muvozanat saqlanishiga nimalar kafolat bo'la oladi?"[8] degan savollarni o'rtaga qo'ygan mamlakatimizning birinchi prezidenti Islom Karimov o'zining "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" asarida. Shu bilan birga, internet tizimi yoshlarning bilim olishi va rivojlanishi uchun nihoyatda qulay bo'lgan imkoniyatlardan biri ekanligini inobatga olmaslik mumkin emas. Lekin shunga qaramasdan bu imkoniyatdan ko'plab qora kuchlar jamiyatimizning yoshlarini o'zini g'arazli yo'llariga tortish imkoniyati borligini ham inkor qilib bo'lmaydi. Yoshlar ta'limini davlat o'z nazorati ostida milliy tarbiya, vatanparvarlik ruhida amalga oshirmasa uni tashqi kuchlar o'zini maqsad va manfaatlar yo'lida ishlatishi va buning natijasi milliy davlatchiligimiz uchun fojeali yakunlanishi tabiiy bir jarayon deb bilaman. Xususan, bizga yot bo'lgan g'oya, mafkura, aqida va qadriyatlarni mamlakatimiz yoshlari ongiga singdirishga harakat qilgan kuchlarning faoliyati va uning oqibatlari ko'pchilikning ma'lum. Islom Karimov davlat kelajagi uchun yoshlarning tarbiyasiga e'tibor qaratish lozimligiga to'xtalib "Biz mamlakatimiz istiqboli yosh avlodimiz qanday tarbiya topishiga, qanday ma'naviy fazilatlar egasi bo'lib voyaga yetishiga, farzandlarimizning hayotga nechog'liq faol munosabatda bo'lishiga, qanday oliy maqsadlarga xizmat qilishiga bog'liq ekanini hamisha yodda tutishimiz kerak"[9] deydi.

Madaniyat inson qalbi va ongiga ta'sir o'tkazishning eng natijador vositasidir. Shuning uchun ham bugungi kunda turli davlatlar madaniyat, san'at, musiqa orqali dunyo yoshlariga ta'sir o'tkazishga asosiy e'tibor qaratmoqda. Hozirgi kunda yoshlarda Amerika madaniyatiga taqlid qilishga intilish hollari kuchaymoqda. "G'arb madaniyati"ning yoshlar ongiga osonlik bilan kirib kelishi va uning "jozibadorligi" ayon bo'lib bormoqda. Bunda internetning o'rni beqiyos. Internet o'z navbatida virtual voqelikni shakllantirib, undan foydalanuvchilarda madaniyatning o'ziga xos yangi ko'rinishi – kibermadaniyatni qaror toptirmoqda.

Virtual voqelik va kibermadaniyat insonlarning fe'l-atvorini osonlik bilan dasturlash imkoniyatini berayapti, ya'ni yoshlar qalb va ongini yot g'oyalar egallashda eng qulay harakatga aylandi. Amerikalik siyosatshunos Z. Bjezinskiy shunday deydi: "Madaniy ustunlik Amerika global kuch qudratining muhim jihati sanaladi. Ayrimlar o'zining estetik qadriyatlarini haqida nimalarni o'ylamasin, Amerika ommaviy madaniyati, ayniqsa, jahon yoshlarini ohangrabo kabi o'ziga tortadi. Uning jozibadorligi, ehtimol, shu madaniyat orqali targ'ib qilinayotgan hayotni sevish falsafasi, hayot sifati bilan bog'liqdir, lekin Amerika madaniyatining jozibadorligi shakshubhasizdir"[10].

Tashqi tahdidlarga qarshi immunitetni mustahkamlash uchun:

Birinchidan, ta'lim va milliy tarbiyani uyg'unlashgan xolda olib borish, yoshlarni nafaqat bilimli balki axloqiy va ma'naviy jihatdan yetuk shaxs sifatida voyaga yetkazishning pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va ta'lim muassasalari faoliyatida ularni faol qo'llashni ta'minlashimiz lozim.

Ikkinchidan, ta'limda yoshlarni diniy ekstremistik g'oyalar, turli axborot tahdidlari qatorida "ommaviy madaniyat"ning salbiy ta'siridan himoyalash uchun ularda vatanparvarlik, mamlakat oldidagi burchni anglash va davlatning taqdiriga daxldorlik tuyg'ularini singdirish kabi masalalarga alohida e'tiborni qaratishimiz kerak.

Uchinchidan, yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishda maktabdan tashqari san'at, madaniyat, sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun shart sharoitlar yaratib berishimiz zarur.

To'rtinchidan, ta'lim muassasalaridagi pedogog o'qituvchilarning o'quvchi-talabalar ota-onalari bilan aloqalarini kuchaytirish. Hozirgi globallashuv sharoitlarida g'oyaviy-mafkuraviy tahdidlarning oqibatlarini yuzasidan ota-onalar o'rtasida tushuntirish ishlarini yo'lga qo'yish.

Beshinchidan, yoshlarni begona g'oya va mafkuralardan himoya qilish maqsadida yosh avlodda vatanparvarlik ruhini kuchaytirish maqsadida respublikamizda ko'zga ko'ringan atqoli va taniqli adabiyot, fan, san'at arboblari, respublikamizdagi mashhur olimlar bilan uchrashuvlar o'tkazish.

Oltinchidan, davlatimiz olib borayotgan keng ko'lamli islohotlar va ularning mohiyati, qabul qilingan qonun hujjatlarining ahamiyati, yurtimizga qarshi qaratilgan g'oyaviy-mafkuraviy va axborot tahdidlaridan ko'zlangan maqsadlarni tushuntirish, yoshlarni xushyorlik va ogohlikka da'vat etish ishlarini tashkil etish.

G'oyaviy-mafkuraviy tahdidlar kuchaygan hozirgi davrda yoshlar ongiga ona vatanga muhabbat, boy tariximiz, milliy qadriyatlarimiz, millatning o'lmas ruhi bo'lgan ona tilimiz, ota-bobolarimizdan me'ros qadriyatlarimiz, muqaddas dinimiz mafkuraviy immunitetini shakllantirishimiz va mustahkamlashda juda muhim. Mafkuraviy immunitet tizimining asosiy kuchi bilim va shu bilim zahirida shakllanadigan qadriyatlar tizimidir. Bilimlar qanchalik ob'ektiv bo'lsa, uning asosida yuzaga kelgan qadriyatlar ham shunchalik mustahkam bo'ladi. Qadriyatlar tizimi mafkuraviy immunitetining imkoniyatini belgilab beradi va yot g'oyalarning zararli ta'siridan himoyalashda mustahkam qalqon bo'lib xizmat qiladi.

Yoshlarda turli mafkuraviy xurujlarga qarshi tura oladigan mafkuraviy immunitetni shakllantirishda ta'lim-tarbiyaning o'rni beqiyos. Hozirgi kunda ma'naviy-axloqiy ta'lim-tarbiya masalasi nihoyatda muhim. Ma'naviy-axloqiy ta'lim-tarbiya jamiyatda, avvalo oila, maktabgacha ta'lim muassasalari, maktablar, litsey, kollej, oliy o'quv yurtlari shuningdek ommaviy axborot vositalari va jamoat

tashkilotlarining birgalikdagi faoliyatini taqozo etadi. Uzluksiz ta'lim tizimi ma'naviy-axloqiy ta'lim-tarbiyani olib boruvchi asosiy bo'g'indir. Bugungi globallashuv sharoitida g'oyaviy-mafkuraviy tazyiqlar va xavf-xatarlarning oldini olish vositasi sifatida ilm-fan va ma'rifatga e'tibor berish lozim. Mamlakatimiz yoshlarining savodxonlik darajasi va ijtimoiy faolligini oshirish, davlatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga nisbatan ularda daxldorlik hissini uyg'otish, ma'naviy-axloqiy ta'lim-tarbiya, shuningdek, milliy qadriyatlarimiz va an'analarimizga asoslangan mafkuraviy immunitetni mustahkamlash shu milliy tizimning mazmun mohiyatini tashkil etadi.

Mustaqilligimizning ilk kunlaridanoq, yosh avlodning barkamol rivojlanishi, ularning jismoniy, axloqiy va ma'naviy tarbiyasi haqida g'amxo'rlik qilish davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylandi va ta'lim sohasida milliy an'analarimiz hamda jahon talablariga javob beradigan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va "Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat dasturi to'g'risida"gi Farmon hamda ta'limga oid ko'plab hukumat qarorlari ishlab chiqildi. Yoshlar ongini yot g'oya va mafkuralardan asrash, milliy mafkura va milliy g'oyani ularda shakllantirish maqsadida ma'naviyat va ma'rifat masalalariga davlat ahamiyati darajasiga ko'tarildi.

G'oyaviy-mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurash va uning salbiy ta'sirlarini oldini olishda davlatimiz tomonidan qabul qilingan yangi tahrirdagi milliy xavfsizlik konsepsiyasi juda muhim. "Mazkur konsepsiyada O'zbekiston tashqi siyosatiga xos moslashuvchanlik va ochiqlik tamoyillari bizning yaqin qo'shnilarimiz bilan konstruktiv munosabatlarni rivojlantirish ustuvor vazifa ekani aks ettirilishi darkor, ayni vaqtda vatanimiz mustaqilligi va suvereniteti, xalqimizning madaniy tarixiy o'ziga xosligini asrash bo'yicha qat'iy ko'rsatmalar belgilab berilishi kerak"[11].

G'oyaviy-mafkuraviy tahdidlar xalqni o'z o'tmishidan uzish, qadriyatlarini unuttirishni maqsad qilgani bilan juda xavfli. Bu jarayon nafaqat bugungi kunda balki qadim o'tmishda ham shu tarzda amalga oshirilgan. Bunga misol: "Aleksandr Makedonskiy O'rta Osiyo xalqlarini bosib olar ekan ularni itoatda tutib turishni o'ylab katta g'oyaviy tajovuzni amalga oshirgan. Beruniyning guvohlik berishicha, u birinchi bo'lib yerli xalqning mo'tabar kitobi "Avesto"ni tortib olish, bir qismini o'z yurtiga yuborish, qolganlarini butunlay yo'q qilib tashlashga buyruq bergan edi. Negaki, ezgulik va yovuzlikni nimadan iborat ekanligini ajratib beruvchi, tushuntiruvchi va amaliy hayotga joriy etuvchi kitob qandaydir qonunlar majmuasigina emas balki, har bir kishining ongli fikrlash tarzi mafkurasiga aylantirgan xalq ustidan uzoq vaqt hukmronlik qilish mumkin emasligini, bu xalqni manqurtga aylantirishda uning shu g'oyaviy mafkuraviy asoslarini yo'qotmasdan iloj yo'qligini yaxshi bilgan"[12].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, globallashuv zamonida insoniyat tafakkuri doimiy axborot oqimining ta'siri ostida shakllanmoqda. Shu bois, yoshlarini buzgunchi, yot g'oya va mafkuralardan himoyalash har bir mamlakatning strategik vazifasiga aylandi. Bunday tahdidbardosh immunitetni hosil qilishda yoshlarning milliy intellektual salohiyatini oshirish, ma'naviy-axloqiy ta'lim-tarbiyasini rivojlantirish, milliy o'zlikni anglash, qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirish lozim. Mamlakatimizda nafaqat an'anaviy balki, zamonaviy, ma'naviyatni yuksatirishga xizmat qiladigan, axloqiy me'yorlarni o'zida mujassam etgan, yoshlarni tanqidiy fikrlashga undaydigan ta'lim-tarbiyaga ehtiyoj bor va ana shunday tizim yoshlarimizni g'oyaviy-mafkuraviy tahdidlardan himoyalashda asosiy immunitet vazifasini bajaradi. Zamonaviy kasblar, ijtimoiy fanlar, axborot-media savodxonlik kabi yunalishlarga e'tibor berish lozim. Bu jarayonlarni tashkil

qiluvchi asosiy kuch davlat bo'lishi kerak. Ajdodlarimizdan o'tib kelayotgan qadriyatlar tashqi ta'sirlarga qarshi mustakam himoya bo'lib xizmat qiladi. Ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari va boshqa shu kabi manbalardan kelayotgan ma'lumotlarni avval filtdan o'tkazmasdan "iste'mol qilish" g'oyaviy-mafkuraviy tahdidlardan ta'siriga tushib qolishni

muqarrarlashtiradi. Bunday katta sig'imdagi va soniyasiga minglab ortib borayotgan axborotlarni filtrlash uchun esa yagona vosita insonning tafakkurida tahdidlarga qarshi immunitetni hosil qilish. Yuqorida qayd etilgan vazifalarni bajarmasdan g'oyaviy-mafkuraviy tahdidlardan himoyalaniish imkonsiz.

ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. O'zbekiston o'qituvchi va murabbiylariga // "xalq so'zi" gazetasi, 2006 yil 30 sentabr', –B.1.
2. Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. –Т.: Ўқитувчи, 1992. –Б.16.
3. Абу Наср Фаробий. Фозил одамлар шахри. –Т.: А.Қодирий халқ мероси, 1993. –Б. 184.
4. Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. –Т.: Ўқитувчи, 1992. –Б.12.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –Т.: Ma'naviyat, 2008. –Б.15.
6. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. –Т.: O'zbekiston, 2021. –Б.276.
7. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. –Т.: O'zbekiston, 2019. –Б.125.
8. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –Т.: "O'zbekiston", 1997. 31-bet.
9. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. – Т.: O'zbekiston, 1999. –Б.385.
10. Бжезинский З. Великая шахматная доска. Господство Америки и геостратегические императивы. –М.: 1998. –С.38.
11. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz 1-jild. –Т.: "O'zbekiston", 2019. 592-bet.
12. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. –Т.: "G'afur g'ulom", 2010. 731-bet.